
Qabul qilindi: 5-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 8-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 10-noyabr 2026-yil

1927–1945 YILLARDA AYOLLARNI MEHNATGA JALB QILISHNING SIYOSIY VA IQTISODIY OMILLARI

Omonova Oydina Alisher qizi
University Business and Science 2-bosqich magistratura talabasi
Email: oydinkaomanova96@gmail.ru



Annotatsiya. Tezisda 1927-1945 yillarda O‘zbekiston va umuman SSSRda ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishning siyosiy va iqtisodiy omillari tahlil qilingan. “Hujum” kampaniyasi, kolxozlashtirish, sanoatlashtirish va Ikkinchi jahon urushi davridagi safarbarlik ayollar mehnatini kengaytirgan asosiy bosqichlar sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek bu ishimizda ayollarning mehnatga jalb etilishi ham mafkuraviy loyiha, ham ishchi kuchi tanqisligiga javob bo‘lganini asoslangan.

Kalit so‘zlar: ayollar mehnati, “Hujum”, jenotdel, kolxozlashtirish, paxta yakkahokimligi, safarbarlik, evakuatsiya, O‘zbekiston, 1927-1945.

Kirish. XX asrning 20-40-yillari ayollarning jamiyatdagi o‘rni tubdan o‘zgargan davr bo‘ldi. Sovet davlati ayollarni “ozod qilish”ni sotsializm qurishning shartlaridan biri deb e’lon qildi. Biroq tarixiy tadqiqotlar ayollarni mehnatga jalb qilish faqat tenglik g‘oyasi bilan izohlanmasligini ko‘rsatdi. Unda siyosiy nazorat, an’anaviy turmush tarzini o‘zgartirish va iqtisodiy ehtiyojlar ham muhim rol o‘ynagan. O‘zbekiston uchun bu mavzu alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda ayollar masalasi diniy-madaniy an’analar, mustamlakachilik merosi va paxta xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liq edi. Tadqiqotning maqsadi 1927-1945 yillarda ayollarni mehnatga jalb etishning siyosiy va iqtisodiy omillarini aniqlashdir. Vazifalari esa “Hujum” kampaniyasining siyosiy mohiyatini yoritish, 1930-yillardagi iqtisodiy o‘zgarishlarning ayollar bandligiga ta’sirini ko‘rsatish, urush yillaridagi safarbarlikni tahlil qilish. Bu ilmiy ishimizda tarixiy-qiyosiy va tahliliy usullardan foydalanildi, xorijiy tadqiqotlarga tayanildi.


Mavzuning dolzarbligi shundaki, ayollar mehnati tarixi sovet davri ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini tushunishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu jarayonni faqat “majburiy mafkuraviy bosim” yoki faqat “ozodlik” sifatida baholash bir tomonlama bo‘lib qoladi. Shu sababli tezisda siyosiy maqsadlar va iqtisodiy zarurat o‘zaro bog‘liq holda ko‘riladi. Tadqiqot hududiy jihatdan asosan O‘zbekistonni qamrab olgan, umumittifoq kontekstidan esa qiyosiy asos sifatida foydalanilgan.

Asosiy qism

1927-yil 8-martda Markaziy Osiyoda “Hujum” kampaniyasi rasman e’lon qilindi. Uning maqsadi ayollarni parda odatidan xalos qilish va ularni jamoat hayoti hamda mehnatga jalb etish edi. Kampaniya yuqoridan tashkil etilgan siyosiy akt bo‘lib, partiya va uning ayollar bo‘limi orqali olib borildi. M. Kamp tadqiqotlariga ko‘ra, kampaniya o‘zbek ayollarining o‘z ovozi va tajribasi bilan ham bog‘liq edi. Jadidlar ayollar islohotiga ilgari ham e’tibor qaratgan, ayrim ayollar yangi imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlagan edi. D. Northrop esa parda masalasi sovet hokimiyati bilan mahalliy o‘ziga xoslik o‘rtasidagi to‘qnashuv markaziga aylanganini ta’kidlagan. G. Massell ayollar “surrogat proletariat”, ya’ni ishchilar sinfi yetarli bo‘lmagan hududda sovet hokimiyatining ijtimoiy tayanchi sifatida ko‘rilganini asoslagan. A. Edgar Turkmaniston misolida shu kabi jarayonlarni tahlil qilgan. Kampaniyaning oqibatlari ziddiyatli bo‘ldi. Dastlabki bosqichda ko‘plab ayollar pardani tashlagan bo‘lsa-da, mahalliy qarshilik va zo‘ravonlik tufayli ko‘pchiligi qayta berkinishga majbur bo‘ldi. Mahalliy tadqiqotlar ham ayollarni ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligiga, jumladan, odatda erkaklar ishi hisoblangan mexanizatsiya sohasiga majburan jalb etish siyosati ijtimoiy chetlanish, oilaviy parchalanish va zo‘ravonlikka olib kelganini ta’kidlaydi. Shunga qaramay, “Hujum” ayollarning maktab, ishlab chiqarish va boshqaruvga kirishi uchun siyosiy zamin yaratdi. 1936-yilgi Konstitutsiya ayollar va erkaklarning teng huquqlarini mustahkamladi, bu esa mehnat bozoriga kirishni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Shu bilan birga, jenotdelning 1930-yilda tugatilishi ayollar masalasi endi alohida tashkilot emas, partiyaning umumiy siyosati doirasida hal etilishini bildirdi.

Siyosiy omillar qatoriga ayollarni mehnatga tayyorlovchi ijtimoiy choralar ham

kiritildi. 1920-yillar oxiridan savodsizlikni tugatish, ayollar uchun maktab va kurslar ochish, qalin va ko‘p xotinlilikka qarshi kurash, oilaviy munosabatlardagi yangi qoidalar ayollarning ish bilan band bo‘lishiga huquqiy va ijtimoiy zamin yaratishga qaratildi. Ayollar bo‘limlarining dastlabki asosiy vazifalaridan biri o‘lka ayollarini savodsizlikni tugatish kurslariga tortish va ularni ishchilar sinfi safiga qo‘shish bo‘lgani ham qayd etilgan. Mehnat bu paytda yangi ayolning asosiy belgisi sifatida targ‘ib qilindi. Ishlovchi ayol “ozod” ayol obrazi bilan bog‘landi, uy bilan cheklanib qolish esa “ortda qolganlik” deb baholandi. Bu qarashlar matbuot, ayollar klublari va tashviqot orqali keng tarqatildi. Shu bilan birga, mahalliy jamiyatda ayolning jamoat joyidagi ishtiroki oila obro‘si bilan bog‘langanligi sababli, mehnatga chiqish ko‘p hollarda jiddiy ijtimoiy xavf va qarshilik bilan kechdi.



Iqtisodiy omillarda ya’ni sanoatlashtirish va kolxozlashtirishda birinchi besh yillik rejalar ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. V. Goldman Rossiya misolida ayollarning sanoatga kirishi ham mafkuraviy tenglik, ham ishchi kuchi tanqisligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa ayollar mehnati asosan qishloq xo‘jaligida, birinchi navbatda paxtachilikda kengaydi. Kolxozlashtirish qishloq ayollarini jamoa xo‘jaligiga jalb qildi, chunki paxta yetishtirish, ayniqsa chopiq va terim, ko‘p qo‘l mehnatini talab qilardi. Paxta yakkahokimligi respublikaning iqtisodiy ixtisosligini belgilab, ayollarning mehnatdagi ulushini oshirdi. Biroq bu mehnat ko‘pincha qo‘l mehnati bo‘lib, malakali kasblar va rahbarlik lavozimlariga kirish cheklangan edi. Ayollar ish haqi to‘lanadigan mehnatdan tashqari uy-ro‘zg‘or yukini ham ko‘tarishar edi. 1930-yillarda mehnatni rag‘batlantirish usullari ham ayollar bandligiga ta’sir ko‘rsatdi. Sotsialistik musobaqa, ommaviy targ‘ibot va ilg‘or ishchilar obrazi mehnatni siyosiy burch sifatida ko‘rsatdi. Bunday targ‘ibot ayollarni kolxoz va ishlab chiqarishga jalb etishda ramziy ahamiyatga ega edi, biroq ommaviy ayollar uchun ish sharoitlari, ish haqi va kunlik yuklama ko‘pincha og‘ir bo‘lib qolaverdi. Demak, iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy “narxi” ko‘p jihatdan ayollar zimmasiga tushgan, shu bilan birga mehnat ayollarga mustaqil daromad va jamoat hayotiga kirish imkonini ham bergan.

1941-1945 yillarda ayollar mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Erkaklarning katta qismi frontga ketdi, ishlab chiqarish esa harbiy ehtiyojga moslashtirildi. J. Barber va M.

Harrison tadqiqotlariga ko‘ra, sovet orqa fronti ayollar mehnatiga katta darajada tayandi. 1942-yil fevralida qobiliyatli shahar aholisini ishlab chiqarish va qurilishga safarbar etish to‘g‘risidagi qaror mehnat majburiyatini kuchaytirdi. O‘zbekiston urush davrida ham front uchun xomashyo va oziq-ovqat yetkazib berdi, ham evakuatsiya qilingan korxonalar va aholini qabul qilgan hudud bo‘ldi. R. Manley Toshkentning evakuatsiyadagi roliga alohida to‘xtalgan. Ayollar qishloq xo‘jaligida, ko‘chirilgan zavodlarda, qurilishda va hunarmandchilikda ishladi, ko‘pincha kuniga uzoq soatlar va kam ta’minot sharoitida ishlashga ham to’g’ri kelgan. Shu tariqa urush ayollar mehnatini davlat uchun muhim iqtisodiy resursga aylantirdi. O‘zbek tilidagi tadqiqotlar urush yillarida ayollar mehnati qishloq xo‘jaligi, sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yetakchi o‘ringa chiqqanini qayd etadi. Xususan, 1940-yilda respublika sanoatida band ayollar jami ishchilarning 43 foizini tashkil etgan. Misol tariqasida, 1942-yilda Urganch shahrida o‘tkazilgan ayollar mitingida frontga ketgan erkaklar o‘rnini bosish uchun sanoat korxonalarida ishlashga da’vat qilingani, 1943-yilga kelib esa shahar korxonalarida 1300 nafar ayol mehnat qilgani keltirilgan. Toshkent shahri va viloyati misolida esa qishloq xo‘jaligida ayollar asosiy ishchi kuchiga aylangani ko‘rsatilgan.


Urush yillarida mehnat intizomi ham qattiqlashdi. 1940-yilda ishdan ixtiyoriy ketishni cheklash va ish kunini uzaytirish haqidagi qarorlar urush davrida yanada keskin amalga oshirildi, bu esa ayollarning ish sharoitiga ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab ayollar erkaklar ketganidan so‘ng kolxoz brigadalari va boshqa mahalliy xo‘jalik vazifalarini ham o‘z zimmasiga oldi. Ayni paytda O‘zbekiston oilalari evakuatsiya qilingan aholini, shu jumladan bolalarni qabul qilishda ishtirok etdi. bu ayollarning uy-ro‘zg‘or va ijtimoiy mas’uliyat yukini yanada oshirdi. Shunday qilib, urush ayollar mehnatini kengaytirgan bo‘lsa-da, uning asosiy sababi tenglik siyosati emas, mamlakatning favqulodda ehtiyoji edi.

Siyosat va iqtisod munosabati tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollarni mehnatga jalb etish ikki bosqichli xarakterga ega bo‘ldi. 1920-yillar oxiri va 1930-yillarda siyosiy-mafkuraviy omil yetakchi bo‘lib, “Hujum” va yangi ayol g‘oyasi orqali ijtimoiy zamin tayyorlandi. Keyinchalik, sanoatlashtirish, kolxoz tizimi va ayniqsa urush sharoitida iqtisodiy zarurat birinchi o‘ringa chiqdi. Ikkala omil bir-birini to‘ldirdi. Siyosiy kampaniyalar ayollar

mehnatini “mafkuraviy jihatdan to‘g‘ri” deb asoslab bergan bo‘lsa, iqtisodiy ehtiyoj uni ommaviy tus olishga undadi. Shu sababli bu davrni bir tomonlama baholash o‘rniga, ayollarning imkoniyatlari ham, ular duch kelgan cheklov va yuklar ham hisobga olinishi lozim.

Xulosa

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki 1927-1945 yillarda ayollarni mehnatga jalb qilish bir necha omilning ta’siri ostida kechdi. Siyosiy jihatdan u “Hujum” va yangi ayol g‘oyasi hamda sovet hokimiyatining ijtimoiy tayanch yaratish maqsadi bilan bog‘liq bo’lsa, iqtisodiy jihatdan sanoatlashtirish, kolxozlashtirish va paxta yakkahokimligi, urush davrida esa ishchi kuchi tanqisligi hal qiluvchi rol o‘ynadi. Natijada ayollarning jamoat hayotidagi ishtiroki kengaydi, lekin bu jarayon qarama-qarshiliklar, an’anaviy jamiyatning qarshiligi va ayollar zimmasidagi qo‘shaloq yuk bilan birga kechdi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – 320 p.

2. Northrop D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Ithaca: Cornell University Press, 2004.

3. Massell G. The Surrogate Proletariat: Moslem Women and Revolutionary Strategies in Soviet Central Asia, 1919–1929. – Princeton: Princeton University Press, 1974.

4. Barber J., Harrison M. The Soviet Home Front, 1941–1945: A Social and Economic History of the USSR in World War II. – London: Longman, 1991.

5. Manley R. To the Tashkent Station: Evacuation and Survival in the Soviet Union at War. – Ithaca: Cornell University Press, 2009.

6. Rasulov B. M., Ergasheva M. G‘. O‘zbekiston xotin-qizlar bo‘limlarining tashkil etilish tarixi va ularning ilk sovet davridagi faoliyat natijalari // ADPI Ilmiy xabarnomasi. – Andijon, 2024. – №2. – B. 4–7. – URL: https://zenodo.org/records/12176369

7. Gadayeva M. M., Bafoyeva R. V. The Sad Fate of the Women of Turkistan: About the “Hujum” Movement and Its Impacts on Agriculture // SPAST Reports. – 2024. – Vol.

1, issue 7. – URL: https://spast.org/article/view/5088/443

8. Ikkinchi jahon urushi sahifalaridan: front ortidagi o‘zbekistonlik ayollar [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – URL: https://academy.uz/uz/page/pdf/ikkinchi-jahon-urushi-sahifalaridan-front-ortidagi-ozbekistonlik-ayollar

